

OTA-ONALAR BILAN SAMARALI HAMKORLIKNI TASHKIL ETISHDA DIREKTORNING STRATEGIK YONDASHUVI

Djumaniyazova Nodira Nurmatovna
Xorazm viloyati Urganch shahar 6-son
DMTT direktori

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari (MTT) va oilalar o'rtasidagi hamkorlikni tashkil etishning samarali usullari, ota-onalarning pedagogik vakolatlarini rivojlantirish va bolalarning tarbiyaviy rivojlanishiga ta'siri tahlil qilinadi. Ota-onalarni turli faoliyatlarga jalb etish, tarbiyachi-pedagog ishida ishtirokini ta'minlash, ijtimoiy-pedagogik tayyorgarlik orqali ularning kompetensiyalarini oshirish masalalari yoritilgan. Shu bilan birga, MTT va oilalar hamkorligidagi mavjud muammolar, xususan, ota-onalarning tarbiyaviy mas'uliyatni kamaytirishi yoki faqat moddiy ehtiyojlarga e'tibor qaratishi kabi holatlar tahlil qilingan

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, ota-ona hamkorligi, pedagogik vakolat, tarbiyaviy rivojlanish, innovatsion usullar, ijtimoiy-pedagogik tayyorgarlik, pedagog-tarbiyachi faoliyati.

Annotation

The article examines effective methods of cooperation between preschool education institutions (PEIs) and families, the development of parental pedagogical competence, and its impact on children's educational and developmental outcomes. The study also analyzes challenges in PEI-family collaboration, including reduced parental responsibility or exclusive focus on children's material needs. Findings provide practical recommendations for improving preschool education quality and developing parental pedagogical activity.

Keywords: preschool education, parental cooperation, pedagogical competence, child development, innovative methods, socio-pedagogical training, educator activity.

Jahonda ijtimoiy-iqtisodiy sohalar taraqqiyotni ta'minlovchi maktabgacha ta'lim tizimi ta'lim-tarbiya jarayonlarini oila hamkorligi asosida tashkil etish, oila va maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini integratsiyalashtirish borasida yangicha yondashuvlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayonlarni tizimli yo'lga qo'yish, shart-sharoitlarni yaratish, zamonaviy sharoitda maktabgacha ta'lim tashkilotlari va oila o'rtasida innovatsion usullarni keng qo'llash hamda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachi pedagogi va ota-onalar uchun yaratilgan o'quv metodik ta'minotini yangilab borish, ota-onalarni tarbiyachi-pedagog faoliyati to'g'risidagi ko'nikma va qobiliyatini shakllantirish bo'yicha **Angliya, AQSH, Germaniya, Finlyandiya, Singapur, Yaponiya kabi rivojlangan davlatlarda va O'zbekiston Respublikasi MTT** tajribalarida amaliy loyihalar bajarilmoqda.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ota-onalarning ishtiroki bolalar tarbiya uchun ham juda yaxshi natija olib keladi. Bola tarbiyasida oilaning o'rni beqiyos. Oila bolaga qattiq ta'sir ko'rsatadi, uni atrofdagi hayotga moslaydi. Jamiyatda esa tarbiya faqat ota-onaning shaxsiy ishigina bo'lib qolmasdan, balki ularning ijtimoiy burchi hamdir. Ota-onalarni tashkiliy ishlarga jalb etish masalan, yumshoq o'yinchoq tayyorlash, suv va qum bilan o'ynashi uchun o'yinchoqlar yasash,

maydonchalarni ko'kalamzorlashtirish uchun jihozlar tayyorlash muhim tadbirlardir. Bunday tanlovlar tarbiyachining yillik ish rejasida o'z aksini topgan bo'lishi kerak. Tanlov shartlarini umumiy ota-onalar yig'ilishlarida muhokama qilish va ma'qullab olish kerak. Faol ishtirokchi ota-onalarga tashakkurnoma e'lon qilish, bu borada buvi-yu, bobolarning ham maslahatlariga quloq tutmoq lozim.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining oila bilan ishlash tizimida aniq maqsad mazmun bo'lishi kerak. Ota-onalar bilan hamkorlik borasida avvalo erishilgan yutuq va tajribalarning natijalarini tahlil qilib, bolaning ijobiy tomonlarini ko'rsatib, keyin asta-sekinlik bilan ularning xulq-atvoridagi salbiy holatlarni bartaraf etishga, tevarak-atrofga qiziqishlarini oshirib borishga astoydil harakat qilish lozimligini uqtirish kerak. Ota-onalarni maktabgacha ta'limga jalb etish maqsadida turli xil to'garaklar, tadbirlar, davra suhbatlari, savol-javob kechalari, guruhiy va umumiy ota-onalar yig'ilishlari, ochiq eshiklar kunini tashkil etish diqqatga sazovor holatlardir.

Odatda ota-onalar bolalarni tarbiyalashda qiyin vaziyatlarga duch kelganda, yordam uchun mutaxassislariga murojaat qilishadi. Ular bilan o'zaro munosabatlarning konstruktiv usullarini izlash bugungi kunda barcha ta'lim tashkilotlarining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan.

Bugungi kunda, pedagog-tarbiyachilar, psixologlar oldida jamiyatning yangi voqeliklari va zamonaviy oilalarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda ota-onalarning pedagogik vakolatlarini rivojlantirish vazifasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ijtimoiy-pedagogik tayyorgarlik ota-onalarning yangi kompetensiyalarini o'zlashtirishning eng samarali shakllaridan biridir.

Oilalar va mahalliy jamoatchilik hamkorligida pedagogning roli beqiyosdir. Bolalarni barkamol tarbiyalashga ularning ota-onalari va jamoatchilikning ta'lim jarayonida faol ishtirokisiz erishib bo'lmaydi, ota-onalarning MTT ning oila bilan hamkorligi borasidagi qarashlari turlicha bo'lganligi bois MTT sharoitlaridan ota-onalarning qoniqish jihatlari o'zgarib bormoqda va bu quyidagi muammolarni keltirib chiqaradi:

birinchidan, ba'zi oilalarda ota-onalarning o'z farzandlarini tarbiyalash va shaxsiy rivojlanishi masalalarini hal qilishdan voz kechish tendensiyasi kuchaygan;

ikkinchidan, ba'zi ota-onalar esa faqat bolaning ovqatlanishi bilan qiziqishadi, ular MTT ni faqat bolalarni boqadigan joy deb hisoblashadi;

uchinchidan, MTT ularning farzandlariga ta'lim berishlari kerak deb hisoblashadi;

to'rtinchidan, tarbiyachilarning maslahatlarini e'tiborsiz qoldiradigan ota-onalar toifasi ham uchraydi. Ba'zi ota-onalar, ularning vazifasi faqat bolaning kiyinishini ta'minlashdir deb hisoblashadi.

Ota-onalarning pedagogik faoliyat sohasiga jalb etilishi, ularning ta'limiy o'yin faoliyati jarayoniga qiziqishi o'z bolasi uchun juda muhimdir.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida oilalar bilan hamkorlik qilish nuqtai nazaridan tarbiyachilarning kompetensiyalarini ko'rib chiqqan olimlar tomonidan olib borilgan bir qator tadqiqotlar mavjud. Jumladan: Hiatt-Michael Oilalarni maktablarga jalb qilishning istiqbolli amaliyotlari. Routledge. Kitob oilalar bilan hamkorlik qilishda turli xil yondashuvlarni taklif etadi, oilaviy ishtirok etishning ahamiyatini o'rganadi va uning rivojlanishi uchun eng muvaffaqiyatli amaliyotlarni belgilaydi.

Oila va yosh bolalarni parvarishlashning maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsi rivojlanishiga ta'siri prinsipial ravishda pedagoglar, jamoat tashkilotlari va oilalarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi, bunda tarbiya bilan shug'ullanuvchi barcha shaxslar, tashkilotlar, jamoat tashkilotlari birgalikda harakat qilishlari, kelishilgan talablarni bir-birlariga ko'rsatishi, bir-birlariga yordam berishi, pedagogik ta'sirni to'ldirish va kuchaytirishi kerak. Agar bunday birdamlik va sa'y-

harakatlarni muvofiqlashtirishga erishilmasa, unda muvaffaqiyatga erishish qiyin. MTT bilan oila va jamoatchilikning o'zaro hamkorligini tashkil etish quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish tizimi jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, ta'limning mazmuniy yangilanishi hamda oilaning ta'lim-tarbiyadagi ishtirokiga bo'lgan talablar asosida tubdan qayta ko'rib chiqilmoqda. Bunday sharoitda maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining – xususan, direktorining – nafaqat boshqaruv funksiyalarini bajaruvchi, balki strategik fikrlovchi, tizimli qarorlar qabul qiluvchi va ijtimoiy sheriklikni yo'lga qo'yuvchi sifatidagi roli ortib bormoqda.

Direktorning strategik boshqaruvdagi o'rni, birinchi navbatda, tashkilot rivojlanishining uzoq muddatli yo'nalishlarini aniqlash, mavjud resurslarni samarali safarbar etish, tashqi va ichki muhit omillarini hisobga olgan holda ta'lim sifati va barqarorligini ta'minlashda namoyon bo'ladi. U ota-onalar, pedagoglar, mahalla va boshqa ijtimoiy institutlar bilan hamkorlikda bolalar tarbiyasi va ta'limining integral modelini yaratishga yo'naltirilgan strategiyani ishlab chiqadi va amalga oshiradi.

Ilmiy manbalarda strategik boshqaruv subyektini sifatida direktorning quyidagi asosiy funksiyalari qayd etilgan: ustuvor yo'nalishlarni belgilash, inson resurslarini rivojlantirish, muammolarni aniqlash va innovatsion yondashuvlar orqali ularni hal etish, ijtimoiy sheriklikni mustahkamlash. Ayniqsa, ota-onalar bilan tizimli va maqsadli hamkorlik strategiyasi direktor faoliyatining ajralmas bo'lagi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining strategik boshqaruvdagi o'rni va roli an'anaviy boshqaruvdan tubdan farq qiladi. U tashkilotning tashabbuskor rahbari, yangilanishlarga ochiq, ijtimoiy sheriklikka tayangan holda barqaror rivojlanishni ta'minlaydigan ilg'or menejer sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

10. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" 595-sonli Qonuni – 2019-yil 16-dekabr.

11. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi 637-son Qonuni – 2020-yil 23-sentyabr.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-sonli Qarori.

13. Shin A.V. Perspektivny razvitiya sistema doskolnogo obrazovaniya Respubliki Uzbekistan. //Maktabgacha ta'lim metodikasi va nazariyasi – Toshkent. , – 2020. – № 2. –C.2-6.

14. Henderson, A. T., & Mapp, K. L. (2002). A New Wave of Evidence: The Impact of School, Family, and Community Connections on Student Achievement. National Center for Family & Community Connections with Schools.

15. Valiyeva F.R., Sharipova G. N. Innovative technologies in improving the management of preschool educational organizations// International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE) DOI:10.9756/intjecse/v14i5.94 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 05 2022

16. Abdullayeva N.Sh. Significance of health-saving technologies in a Preschool educational organization// Abstracts of V International Scientific and Practical Conference,Osaka, Japan 29-31 January 2020, 14-16 bet